

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA YOSHLAR BANDLIGINI
TA'MINLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Tagayev Bexzad Anvarovich

Biznes va tadbirkorlik oliy
maktabi mustaqil tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10552563>

Annotatsiya. *Yoshlar bandligini ta'minlash masalasiga katta e'tibor qaratishning bir qancha sabablari mavjud. Tahlillarga ko'ra, yayaqin 15-20 yil ichida aholi sonida yoshlar ulushining keskin o'sishi kutiladi. Shu sababli, bugungi kunda yoshlar bandligini ta'minlash hukumat iqtisodiy siyosatining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Yoshlar bandligini ta'minlash hukumatga bir qator ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy navf ko'rish imkonini beradi, yoshlar bandligi masalalariga etarlicha e'tibor qaratmaslik natijasida mamlakatda turli xil ziddiyatli jarayonlarning vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida yoshlar bandligini ta'minlashning ba'zi jihatlari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, raqamli ko'nikmalar, yoshlar, bandlik, raqamli bandlik, ishsizlik, gender tengligi, iqtisodiy farovonlik.

SPECIFIC ASPECTS OF PROVIDING YOUTH EMPLOYMENT IN THE DIGITAL
ECONOMY

Abstract. *There are several reasons for focusing on youth employment. According to the analysis, a sharp increase in the share of young people in the population is expected in the next 15-20 years. Therefore, today, ensuring youth employment is one of the priority tasks of the government's economic policy. Ensuring youth employment allows the government to see a number of social, political and economic advantages, as a result of not paying enough attention to youth employment issues, various conflict processes arise in the country. Based on the above, this article analyzes some aspects of ensuring youth employment in the digital economy.*

Keywords: digital economy, digital skills, youth, employment, digital employment, unemployment, gender equality, economic well-being.

ОСОБЕННОСТИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЗАНЯТОСТИ МОЛОДЕЖИ В ЦИФРОВОЙ
ЭКОНОМИКЕ

Аннотация. *Существует несколько причин уделять большое внимание вопросу трудоустройства молодежи. Согласно анализу, резкое увеличение доли молодежи в населении ожидается в ближайшие 15-20 лет. Поэтому сегодня обеспечение занятости*

молодежи является одной из приоритетных задач экономической политики государства. Обеспечение занятости молодежи позволяет правительству видеть ряд социальных, политических и экономических преимуществ, поскольку в результате недостаточного внимания вопросам занятости молодежи в стране возникают различные конфликтные процессы. На основании вышеизложенного в данной статье анализируются некоторые аспекты обеспечения занятости молодежи в условиях цифровой экономики.

Ключевые слова: *цифровая экономика, цифровые навыки, молодежь, занятость, цифровая занятость, безработица, гендерное равенство, экономическое благополучие.*

Hukumatning yoshlar siyosatida ikki asosiy yo'nalish: yoshlarga zamonaviy ta'lim berish va yoshlarni samarali band qilish muhim o'rin tutadi. So'nggi besh yil ichida universitetlar soni ko'payib, oliy o'quv yurtlariga kirish kvotasi ikki baravar ko'paydi. Mehnat bozorida mavjud faol dasturlardan tashqari, o'tgan yili yoshlarni ish bilan ta'minlash va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha yangi chora-tadbirlar, shu jumladan yoshlar uchun ish haqi subsidiyalari, kasb-hunar ta'limi talabalari uchun korxonalarda ishlab chiqarish amaliyotini subsidiyalash, tadbirkorlik loyihalari uchun imtiyozli kreditlar ajratilmoqda va yoshlar texnoparklariga investitsiyalar kiritilmoqda.

Qishloq va shaharlarda istiqomat qiluvchi yosh aholi, qiz va o'g'il bolalar, maktabni tugatmaganlar va universitet bitiruvchilari turli xil xususiyatlarga ega bo'lganlari holda, o'z hat yo'llarida turli tanlov va cheklovlarga duch keladilar. Mehnat bozorining standart tahlilida yoshlar guruhiga 15-24 yoshdagi shaxslar kiritiladi, O'zbekistonda esa bunday toifaga 15-29 va 35 yoshdagi insonlar kiritiladi.

Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasi bo'yicha O'zbekiston yoshlar soni bo'yicha mutloq ustunlikka ega: 24 yoshgacha bo'lganlar 15 million, 29 yoshgacha bo'lganlar 18 million nafarni tashkil qiladi. Kelgusi o'n yil ichida mehnatga layoqatli aholi soni 12 foizga ko'payishi kutilmoqda.

Ayol jinsiga mansub yoshlar o'rtasida NEET ulushi erkak jinsiga mansub yoshlarga qaraganda to'rt karra yuqori. 2017 yilda 38,2-16 yoshdagi ayollarning qariyb 24 foizi NEET toifasiga mansub bo'lgan bo'lsa, xuddi shu yosh guruhidagi erkaklarning atigi 9,4 foizi mazkur toifadan o'rin olgani holda, oradagi tafovut 29 foizni tashkil qiladi. Kengroq yosh guruhi (16-29 yosh) uchun bu farq 18 foiz punktgacha kamayadi, bu erda ayollarning 44 foizi ishsiz, o'qimaydi va ish izlamaydi, bu ko'rsatkich erkaklarda 8,5 foizni tashkil qiladi.

Fokus-guruhlardagi yoshlar bilan munozaralar davomida to'plangan sifatli ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, mahalliy mehnat sharoitlari, asosan kam maoshli va norasmiy bandlik ishsiz yoshlarni xalqaro migratsiyani ish va munosib ish haqining deyarli yagona varianti deb bilishga undaydi. 16 va undan katta yoshdagi aholining 5,5 foizi xalqaro mehnat muhojirlaridir. Migrant ishchilarning aksariyati 25-34 yoshdagi odamlar, ayni chog'da esa, muhojirlarning aksariyati (taxminan 90 foiz) erkaklardir. O'zbekistonliklarning asosiy qismi Rossiya, Qozog'iston va Turkiyada mehnat qiladilar.

Ma'lumot darajasi past bo'lgan yoshlar bilan taqqoslaganda, oliy ma'lumotli yoshlar o'rtasida ishsizlik darajasi bir muncha past. Biroq, 25 yoshdan 34 yoshgacha bo'lganlarning 10,7 foizi oliy ma'lumotli bo'lsalarda, har uch nafar yoshning ikki nafari o'rta-maxsus ma'lumotiga ega, 23 foiz yoshlar to'liq o'rta ma'lumotga ega bo'lgani holda, 2 foiz yoshlar 9 yillik attestatga egalar.

O'rta, shuningdek, o'rta maxsus va kasb-hunar ma'lumotiga ega bo'lgan xodimlar (ishchilar umumiy sonining 61 foizini tashkil etadi) talab qilinadigan texnik va kommunikatsion ko'nikmalarga ega emaslar, bu ham oliy ma'lumot olishda, ham kasb-hunar ta'limi va o'qitish sifatidagi sezilarli bo'shliqlar mavjudligini ko'rsatadi.

Mehnat bozori bo'yicha axborot tizimlari ish izlovchilar va ish beruvchilar o'rtasidagi axborot oqimini yaxshilash orqali mehnat bozorlarini yanada samarali qilishga yordam beradi. Kutilayotgan maoshlar, qidirilayotgan kasblar va ko'nikmalar haqida aniq ma'lumot mavjud bo'lganda, yoshlar muqobil martaba yo'llarini, shuningdek, ta'limga sarmoya kiritishning eng yaxshi variantlarini solishtirishlari mumkin. Ish beruvchilar ham, yoshlar ham do'stlar va shaxsiy aloqalar orqali norasmiy ish qidirish kanallari odatiy hol ekanligini ta'kidlaydilar. Maktablarda kasbga yo'naltirish ishlarining samaradorligi talabga javob bermaydi. Yoshlar va maktab vakillari bilan suhbatlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar ta'limdan keyin mehnat faoliyatini boshlashga tayyor emaslar. Na maktab va na ota-onalar ularga ongli qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan mehnat bozori to'g'risida ma'lumot bermaydilar. Ular mintaqaviy mehnat bozori, tarmoq o'zgarishlari yoki kompaniyalarning ma'lum ko'nikmalar yoki mutaxassisliklarga bo'lgan talabi to'g'risida yangilangan ma'lumotlardan xabardor emaslar. O'zbekistonda bitiruvchilar o'zlarining sub'ektiv qiziqishlari, afzalliklari va ambitsiyalaridan kelib chiqqan holda ta'lim yoki kasbni tanlaydilar. Yoshlar ma'lum bir kasbni olish uchun qaysi kasblarga talab yoki yaxshiroq maosh olishini, shuningdek, qaysi ta'lim yo'llari zarurligini bilmasliklarini aytishdi. Natijada, axborot etishmasligi maqbul qaror qabul qilish va investitsiyalarni to'g'ri yo'naltirishga to'sqinlik qiladi.

Muammolarni hal qilish va mavjud siyosat va dasturlarning zaif tomonlarini bartaraf etish uchun qisqa va uzoq muddatli istiqbolda yoshlarni ish bilan ta'minlash siyosati dasturi samaradorligini oshirish borasida yo'l xaritasi ishlab chiqish talab qilinadi. Yo'l xaritasining maqsadi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha yanada kengroq dasturni ishlab chiqish emas, balki yoshlarga ta'limdan mehnat bozoriga o'tishda yordam beradigan aniq siyosat jihatlariga e'tibor qaratishdan iborat bo'lishi lozim.

Qisqa va o'rta muddatli istiqbolda quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq: ish haqi subsidiyalari va ustoz-shogirdlik uchun to'lovlar ajratish hajmini oshirish; yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash uchun ko'nikmalar va boshlang'ich kapitalni taqdim etishni kengaytirish; raqamli ko'nikmalarni maktab va kasb-hunar ta'limi markazlarida targ'ib qilish orqali rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash; talab qilinadigan ko'nikmalar va kasblarning yanada samarali diagnostikasini ta'minlash va talabalar va yosh ish izlovchilarga ta'lim va mehnat bozori to'g'risida ma'lumot berish; yoshga mos kasbiy yo'naltirish mexanizmlarini institutsionallashtirish va shu kabilar.

Uzoq muddatli istiqbolda yoshlarni ish bilan ta'minlash siyosatini takomillashtirish maqsadida oliy ta'lim qamrovini oshirish, gender tenglikka erishish, ish beruvchilar bilan yaqindan hamkorlik qilish, milliy malaka tizimini qayta baholash, ta'lim tizimi dasturlarini xalqaro andozalarga moslashtirish kabi vazifalarni hal etish talab qilinadi.

REFERENCES

1. "Youth Employment in Uzbekistan: Opportunities and Challenges"// 2021 International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank.
2. European Commission (2021), "2030 Digital Compass: the European way for the Digital Decade", *Journal of Chemical Information and Modeling*, Vol.
3. Абдувохидов А. А. Ислохотларнинг Ҳозирги Босқичида Тadbirkorликни Ривожлантириш Аҳоли Фаровонлигини Оширишнинг Муҳим Асоси Сифатида //Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali. – 2021. – T. 1. – №. 6. – С. 388-399.
4. Abduvoxidov, A., & Kamilova, S. (2023). INSON KAPITALI VA IQTISODIYOTNING INNOVATSION RIVOJLANISHINI TADQIQ ETISHDAGI YONDASHUVLAR. *Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil*, 1(4), 12–21. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2023-vol1-iss4-pp12-21>